O‘ZGAND – O‘ZJAND – O‘ZGAN ETNOTOPONIMINING KELIB CHIQISHIGA DOIR

Jo‘raboyeva Gulrux Solijonovna,
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti (f.f.b.f.d., dotsent)

Annotatsiya

Maqolada qadimda Farg‘ona vodiysi hududiga tegishli hisoblangan O‘zgan etnotoponimining kelib chiqishiga doir ma’lumotlar arab sayyohlari Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiy, as-Sam’oniy asarlari va “Hudud ul-olam”, “Tarixi Rashidiy”, “Devonu lug‘otit-turk” kabi tarixiy yozma yodgorliklar hamda boshqa ilmiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *toponim, astionim, etnotoponim, 92 bovli o‘zbek urug‘i, Dashti Qipchoq o‘zbeklari, etnonim, etimologiya, topoleksema.*

KIRISH

Farg‘ona vodiysining Qoradaryo sohilida joylashgan eng qadimgi shahar nomlaridan biri O‘zgandir (hozirgi Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyatiga tegishli). Arxeologlarning aniqlashicha, O‘zganning qadimiy qatlamlari miloddan avvalgi II-I asrlarga oid bo‘lib, astionim dastlab X asr yozma manbalarida – arab sayyohlari Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiy, as-Sam’oniy asarlari va “Hudud ul-olam”da *O‘zgand // Yuzkand* tarzida [1; 2; 3; 4], fors tilida yaratilgan XV-XVI asr yodgorligi “Tarixi Rashidiy” da esa *O‘zgand // O‘zjand* shaklida uchraydi [5].

Yurtimiz tarixi va geografiyasiga oid bu manbalarda O‘zgan astionimining kelib chiqishi, etimologiyasi borasida aniq bir xulosalar keltirilmagan bo‘lsa-da, lekin mazkur shaharning o‘sha davrdagi umumiy qiyofasi – jug‘rofik o‘rni, iqlimi, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy tavsifiga oid boshqa ko‘plab ma’lumotlar qayd etilgan. Jumladan, arab sayyohi Istaxriy o‘zining “Kitob masolik al-mamolik” asarida shahar haqida shunday yozadi: “*O‘zgand – Farg‘ona viloyatidagi eng iliq joy. U Farg‘ona viloyatining chegara hududida, dushmanlarga yaqin joyda joylashgan. O‘zgand O‘shning uchdan ikki qismiga teng. Ko‘handiz, shahriston, bog‘-bo‘stonlari va oqar suvlariga ega” [2].*

“Hudud ul-olam” asarida joy tavsifiga oid quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “*O‘zgand – Farg‘ona bilan Turklar o‘lkasi oralig‘idagi chegarada joylashgan shahar. Uning yaqinidan ikkita daryo oqib o‘tadi: birini Tabog‘ar daryosi deydilar, Tibatdan boshlanadi; boshqa birini Barsxon (daryosi) ataydilar, Xalluxdan oqib keladi” [6, B. 16].* Aytish joizki, bu o‘rinda muallif O‘zgand yaqinidan oqib o‘tadigan ikkita daryo – Tabog‘ar va Barsxon deganda hozirgi Qoradaryoning irmoqlari sanalgan Tar va Zargar daryolarini nazarda tutgan.

Arab sayyohi Muqaddasiyning “Ahsan at-taqqosim fi ma’rifat al-aqolim” asarida O‘zgand Farg‘ona vodiysining o‘sha davrdagi Miyon Rudon viloyati shaharlari sifatida tilga olinadi: “*Miyonrudiy shaharlari (Norin va Qoradaryo oralig‘idagi Miyon Rudon tumanida): Nasrobod, Minora, Rangad, Shikit, Zarkan, Xayrlam, Bashbashan, Ushtikon, Zandaramish, O‘zgand” [3].*

Bundan tashqari, as-Samoniy ham “Al-muntaxab min mu’jam ash-shuyux” asarida O‘zgand haqida ma’lumot berib, u ham bu shaharni Farg‘onaning chekka

hududida, turklar bilan chegaradosh yerda joylashganini bayon etadi. Bir necha darvozalarga ega bo‘lgan va devor bilan o‘ralgan shahar ichkarisida bozor mavjud bo‘lib, u yerga turklar savdo-sotiq ishlari bilan kelib turganligini ta’kidlab o‘tadi. Asarda shahar nomi *Yuzkand* ko‘rinishida ham uchraydi [7, B. 17].

Nomning kelib chiqishi borasida ilmiy adabiyot va lug‘atlarda ham turli fikrlar mavjud. A.Xo‘jayev ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zgan astionimi xitoy manbalarida *Yuycheng* shaklida uchraydi va nomning birinchi qismini tashkil qilgan ***yuy*** iyeroglifi xitoy tilida “go‘zal, xushbo‘y, iliq” kabi ma’nolarga ega [8, B. 143-144]. Z.Do‘simov, X.Egamovlar fikricha, astionim qadimgi turkiy tillarda uchraydigan *o‘guz* – “daryo” so‘zi bilan aloqadordir. Mo‘g‘ulcha ***o‘s*** – “daryo” hamda ***kent*** – “shahar” ma’nosini bildirib, *O‘zgan* – “suv bo‘yidagi shahar” demakdir [9, B. 152].

P.B.Lurye tadqiqotlarida O‘zgand astionimining nomlanishi ikki xil talqin qilinadi. Unga ko‘ra, astionim tarkibidagi uz // o‘z birligini qadimgi turkiy tilda faol qo‘llangan ***o‘z*** – “o‘tish joyi, dara, vodiy” ma’nosi bilan yoki ***uz (yuz)*** etnonimi bilan bog‘lash mumkin [10, B. 103].

Tarixchi olim I.Salimov nomning etimologiyasi xususida Lepsining izlanishlarini ma’qullaydi. Unda aytilishicha, O‘zgan so‘zining yuzaga kelishi turkiy xalqlarning eng qadimgi bobokaloni O‘g‘uzxon nomi bilan bog‘liq [15]. A.Shukurov tadqiqotlarida ham astionim O‘g‘uzxon nomidan kelib chiqqan bo‘lib, O‘zgan – “O‘g‘uzkent” ning qisqargan shaklidir. Olim tilimizda uchraydigan bir qancha turkiy etnonimlarni, jumladan, *o‘g‘uz, g‘uz, uz, yuz, gagauz, qirg‘iz, qozoq, o‘zbek* singari tarkibida *uz // g‘uz* birliklari mavjud bo‘lgan atamalarning manbaini bevosita O‘g‘uzxon antroponimi bilan aloqador, deb hisoblaydi [11, B. 26-30].

Mutaxassislar ta’kidlaganidek, predmetlarning turli belgilaridan bittasi hamisha nom uchun asos bo‘lib keladi. Bu qonuniyat, albatta, atoqli otlar uchun ham xos bo‘lib, yuqoridagi talqin va tahlillarning barchasida, obyekt uchun xos bo‘lgan qaysidir jihatlar astionimda o‘z aksini topishi hisobga olingan. Nomning birinchi qismini tashkil qiluvchi ***o‘z*** morfemasini ham bu o‘rinda gidronimik termin sifatida talqin etish nom etimologiyasi uchun yaqin xulosadir. Chunki hozirda *o‘zek // o‘zak, o‘zan, o‘zbo‘y, o‘kuz, tazg‘un (daryo)* singari atamalar tarkibida uchraydigan ***o‘z*** topoleksemasi qadimgi turkiy tillarda “daryo”, “ariq”, “oqim”, “vodiy”, “tog‘ darasi”, “tog‘dan o‘tish yo‘li” singari bir qancha ma’nolarni ifodalab [12, B. 510-512], tadqiq etilayotgan nom tarkibida Qoradaryo bo‘yida, tog‘ daralarida joylashgan O‘zgan shahrining geografik o‘rniga ishora qilishi mumkin.

Shunday bo‘lsa-da, bizning fikrimizcha, O‘zgan astionimi etimologiyasini yoritishda buyuk alloma Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixchi olimlarning ta’kidlashicha, milodiy IV asrdan Markaziy Osiyoning daryo, vodiylariga turkiy xalqlar ko‘chib kela boshlagan va Farg‘ona vodiysining turkiylashish jarayoni ham aynan mana shu davrlarga to‘g‘ri keladi. O‘zgan shahrining tub aholisi ham qadimdan ushbu xalq vakillari bo‘lib, “Devonu lug‘otit-turk”da qayd etilishicha, o‘sha davrda O‘zjand [O‘zgan]da turuvchi turkiy qabilalardan birining nomi ***ezgish*** deb atalgan [13, B. 83]. Ta’kidlash joizki, turkiy xalqlar hayotida ham O‘zgan shahrining ahamiyati va nufuzi juda katta bo‘lib, shahar XI-XIII asrlarda mazkur qavm vakillari tomonidan asos solingan Qoraxoniylar davlatining Farg‘ona ulusi poytaxti deb e’lon

qilingan. “Devonu lug‘otit-turk”da bayon etilgan yana bir izohga ko‘ra esa turkiylar tomonidan **O‘zkand** – “o‘z shahrimiz” [13, B. 233] ya’ni “o‘zimizning joyimiz” sifatida e’zozlangan. Bundan tashqari, ***ezgish*** yoki astionim tarkibidagi ***uz // o‘z*** birligining yuqoridagi mulohazalarga ko‘ra turk eli xoqoni ***O‘g‘uz*** nomi bilan o‘zakdosh sanalishi ham, fikrimizcha, astionim tarkibidagi ***uz // o‘z*** birligini geografik termin emas, balki turkiy etnonim sifatida baholashga imkon yaratadi. Tarixchi va etnograf olim A.Qayumovning “O‘zbek qabilalari va urug‘lari” [14] deb nomlangan maqolasidagi xulosalarni esa fikrimizning isboti sifatida keltirib o‘tamiz. Soha mutaxassislari M.Ermatov, R.Ageyeva, K.Shoniyozova fikrlariga asoslangan ushbu tadqiqotda 92 bovli o‘zbek urug‘lari tarkibida mavjud bo‘lgan eng qadimgi turkiy qavmlardan biri ***uz // o‘z*** etnonimi haqida so‘z yuritilib, qabila dastlab VI-VII asrlarda G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida paydo bo‘lganligi va VIII asrning 60-yillaridan boshlab, Chu va Ili daryolari havzalarida yashaganligi qayd etiladi. Ularning Sirdaryo bo‘yiga, xususan, Farg‘ona vodiysiga kelib o‘rnashishlari VIII-X asrlarga (undan avvalroq bo‘lishi ham mumkin) to‘g‘ri keladi. ***Uz // o‘z*** qabilasining o‘troq holatda hayot kechirishlari natijasida esa ushbu urug‘ nomi bilan atalgan ko‘plab toponimlar yuzaga kelgan. Masalan, Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan shahar (Sig‘noq shahri va Barchinlikent qishlog‘i orasi) va Ural daryosi g‘arbidagi joylar *Uzkand // O‘zgand* deb nomlangan. Sirdaryoning o‘rta oqimidagi ikki tuman – *Ichki O‘zgand* va *Tashqi O‘zgand* nomi bilan, o‘sha yerdagi ko‘l esa *O‘z* nomi bilan yuritilgan. Shuningdek, tadqiqot xulosasiga ko‘ra, biz so‘z yuritayotgan *O‘zgan* astionimi ham shu urug‘ nomi bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan.

Ta’kidlash joizki, astionim tarkibidagi ***uz // o‘z*** etnonimini Farg‘ona vodiysidagi ko‘plab etnotoponimlarning yasalishida asos vazifasini bajargan *yuz // juz* urug‘ nomi bilan almashtirmaslik lozim. Soha vakillarining aniqlashicha, bu ikki atama boshqa-boshqa qabila nomlari sanalib, *yuz // juz* etnonimining Markaziy Osiyoda paydo bo‘lishi XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi Dashti Qipchoq o‘zbeklarining ushbu hududga kirib kelishi bilan bog‘lanadi.

Demak, O‘zgan etnotoponimi etimologiyasi 92 bovli o‘zbek urug‘i sanalgan *uz // o‘z, az* qabila nomlaridan kelib chiqqan bo‘lib, uning shakllanishi quyidagicha: *O‘zgand // Yuzkand // O‘zjand > O‘zgan.* Astionim tarkibiy jihatdan ikki topoleksemadan iborat, ya’ni *o‘z* – “urug‘, qabila nomi” hamda *gand // jand > gan* – “shahar” ma’nosini anglatadi va O‘zgan – “o‘z qabilasi shahri” yoki “o‘z urug‘i vakillari yashaydigan joy” sifatida talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳудуд ул-олам. Тошкент: O‘zbekiston, 2008; Ибн Ҳавқал. БГА. 2-жилд.
2. Истахрий. Китоб ул-масолик вал-мамолик. БГА, 1-жилд.
3. Муқаддасий. Аҳсан ул-тақосим фи маърифати ул-ақолим. БГА. 3-жилд.
4. Материалы по истории киргизов и Киргизии. – Москва, 1973.
5. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Тошкент: Шарқ, 2010.
6. Ҳудуд ул-олам. Тошкент: O‘zbekiston, 2008.
7. Алимов З. Абу Саъад Абул Карим ибн Муҳаммад Ас-Самъонийнинг “Ал-мунтахаб мин ва муъжам аш шуйух” асари Фарғона водийси тарихи ва тарихий географияси манбаси сифатида // Водийнома. – Андижон, 2016. – № 1.

8. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Фарғона, 2013.
9. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 152.
10. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: дисс. канд. филол. наук. – СПб.: Институт востоковедения РАН, СПб филиал, 2004.
11. Шукуров А. Нур устига ёғсин нур ёхуд 4800 йил аввалги бир сўзимиз ҳақида дунёда бораётган баҳс тўғрисида битик. – Тошкент: Chashma print, 2013. – Б. 26-30.
12. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва: Наука, 1974. – С. 510-512.
13. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. I жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016. – Б. 83.
14. www.google.com // media2.yangidunyo.org › uz
15. www.google.com // https://govori.tv › uzgen › uzgen